
Muhayyoxon Obidovaga imtiyozli kredit ajratilib, faoliyati yanada kengaytirildi

"Afrosiyob" mahallasida yashovchi tadbirkor Muhayyoxon Obidovanning chevarchilik sohasiga kirib kelganiga o'n yil bo'ldi. So'nggi 2-3 yilda tadbirkorlik qilish istagini bildirayotgan fuqarolarga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlarni eshitib, faoliyatini kengaytirishni niyat qilgan.

Bu orada mijozlar soni ortdi, shuningdek yangi ochilayotgan bog'chaga va klinikalardan ham buyurtmalar qabul qilindi. Albatta, buyurtmalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish uchun yangi dastgohlarga zaruriyat bo'ldi.

Mahallada faoliyat olib borayotgan hokim yordamchisi Sanjarbek Masharipovning tavsiyasiga ko'ra, tajribali chevarga 33 million so'm imtiyozli kredit ajratildi. Kredit mablag'lari hisobiga zamonaviy tikuv mashinalari olindi.

Muhayyoxon Obidovanning 2 nafar shogirdlari hozirda ham o'quvchi, ham ko'makchi. Shuningdek, ikki nafar ishsiz xotin-qizlar kasanachilik asosida faoliyat olib borishmoqda. Tadbirkorimiz bir oyda o'rtacha 5 million, buyurtma ko'payganda 7-8 million so'mgacha daromad topmoqda.

2023-09-18 11:21:32